

MTT DA BOLALARNING TABIAT VA EKOLOGIYA HAQIDA TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Boltayeva Manzura Boyturayevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish hamda tabiat va ekologiya haqida tasavvurlarni shakllantirishda yangi davr talabidan kelib chiqqan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yangi texnologiyalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv faoliyatini tashkil etish va bosqichma-bosqich ekologiya va tabiat bilan tanishtirishni amaliy mashg'ulotlar asosida kengroq olib borish, va bolalarda tabiatga nisbatan hurmat hissini ertaroq uyg'otish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, tabiat, ekologik tarbiya, takomillashuv, harakat, innovatsion g'oyalar, innovatsion texnologiyalar, bolalar ijodkorligi, yangi jahon tajribalari, tabiatga mehr, mehnat, mehnatni ulug'lash*

Annotation: *In this article, the introduction of children to nature in pre-school educational organizations and the use of modern technologies based on the requirements of the new era in the formation of ideas about nature and ecology, the organization of educational activities in pre-school educational organizations based on new technologies, and the step-by-step interaction with ecology and nature it is said to carry out the introduction more widely on the basis of practical activities, and to instill in children a sense of respect for nature earlier.*

Key words: *ecology, nature, environmental education, improvement, action, innovative ideas, innovative technologies, children's creativity, new world experiences, love for nature, work, glorification of work*

Аннотация: *В данной статье рассматривается приобщение детей к природе в дошкольных образовательных организациях и использование современных технологий с учетом требований новой эпохи в формировании представлений о природе и экологии, организации образовательной деятельности в дошкольных образовательных организациях. организации на основе новых технологий, а поэтапное взаимодействие с экологией и природой предполагается осуществлять более широко на основе практической деятельности, а также раньше прививать детям чувство уважения к природе.*

Ключевые слова: *экология, природа, экологическое образование, благоустройство, действие, инновационные идеи, инновационные технологии, детское творчество, новый мировой опыт, любовь к природе, труд, прославление труда.*

Mamlakatimiz mustaqilligi erishganligi sharofati bilan bugungi kunda bir qancha ahamiyatsiz deb qaralgan masalalar tobora kengayib, o'zgacha ahamiyat kasb etmoqda. Bizga ma'lum bo'lmagan tarix zarvaraqlarida bitilgan pinhona yozilgan qadriyatlarimiz, noyob qo'lyozma asarlarimiz, qadimiy yodgorliklarimiz va bebaho sanalgan go'zal adabiy merosimiz istiqlol sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan juda keng ma'noda o'rganilmoqda. Tarix bu insoniyatning barkamolligi va taraqqiyot yo'lidir. Moziyni bilmaslik, o'z tarixini yaxshi anglamaslik o'zini anglamaslikdir.

O'zini anglagan xalqgina buyuk kishilarning nomlarini e'zozlab, ruhi poklarini doimo yod etadi. Agar biz o'tmish tariximizga, nazar tashlasak, yashab ijod etgan pedagoglarimiz o'zlari ijod etgan davrlardayoq "Bolaning har tomonlama o'sishida, ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matlari uning mo'jizalaridir" deb ta'kidlab o'tganlar. Tarix zarvaraqlarida o'zlarining o'chmas, unutilmas nomlarini qoldirgan buyuk pedagoglar bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati, uning bola ruhiyatiga qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy fikrlarini aytib o'tganlar. Ta'lim olish jarayonida ushbu mavzuni o'rganishda G'arb pedagoglaridan: Y.A. Komenskiy, J.J. Russo, I.G. Pestolotsiy kabi olimlarning bola tarbiyasida tabiatning tutgan o'rni haqidagi ilmiy asarlari bilan tanishib boriladi. Rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiyning, "Inson tarbiya predmeti sifatida" asarida shunday fikrlar keltirilgan: "Meni pedagogikada dahol hisoblasangiz ham, lekin men o'z hayotiy tajribamda shunday xulosaga. Go'zal tabiat yosh qalbgga shunday katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadiki, hatto pedagogikaning ta'siri ham u bilan raqobatlashishga ojizdir". Tarixdan bizga ma'lumki o'rta asrlarda pedagogika sohasida tabiat haqidagi tushunchalar Yevropa mamlakatlarida deyarli rivojlanmagan. Ana shunday bir davrda G'arbiy Yevropada fan deyarli umuman o'rganilmay qolganida, O'rta Osiyo olimlari uni rivojlantirdilar. O'rta asrlarda O'rta Osiyo olimlari hali ekologiya fani umuman yo'q bo'lgan davrda tabiat, undagi mavjud muvozanat, tabiatni e'zozlash, uni asrab – avaylash, unga hurmat bilan qarash haqida bosh qotira boshladi. Bu esa albatta tabiat va ekologiya hamda uni asrab avaylash haqida qimmatli fikrlarni yaratilishiga sabab bo'ldi. Tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va uni asrab avaylash kelajak avlodlarning hayot yo'llarini ravshanlashtiradi. Buyuk alloma, entsiklopedik olim bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy (783-847) bir risolasida shunday yozadi: "Bilginki, dunyoning ko'zlari yoshlansa uning boshiga g'am kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmang". Buyuk dahol Muhammad al-Xorazmiy ta'kidlaganidek, demak ona tabiat va unda mavjud bo'lgan har bir ko'rinish, har bir mavjudod inson uchun ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak. Yerga, suvga, hayvonlarga, koinot, jamiki tabiatga bo'lgan bo'lgan munosabatlarimizni yaxshilashimiz bilangina ona tabiatimizni asrab qolishimiz mumkin.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al - Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Mana shunday zabardast buyuk

allomalarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, o'zining "Kitob surat al - arz" asarini, Abu Nasr Farobiy (870-810) "al - hajmi va al - miqdor", "Kitob almabodi al - insonia" asarlarini, Abu Rayhon Beruniy "Saydana", "Minerologiya" asarlarini Abu Ali ibn Sino, u "Kitob al - shifo", "Tadbir ul - manzil" kabi asarlarini yozganlar. Hadisi sharifimizdagi tabiat, tabiatni avaylab asrash, uni ko'paytirish, parvarish qilishga oid bandlari bilan ham tanishib chuqur tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda ham o'rta asrlardagi kabi tabiat, ekologiya muammolari o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Insoniyat yaratilibdiki, har doim tabiat bilan birga rivojlanadi, yuksaladi. Tabiat rivojlanmagan har qanday sharoitda inson hayotiga yakun yasala boradi. Shunday ekan, tabiat haqidagi beriladigan bilimlar mazmunining bolalar yoshiga mos kelishi va ularda tabiat va ekologiyaga mehr uyg'otish, uni asrab avaylashga, hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish lozim. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda o'quv jarayonlarini to'g'ri tashkil qilish, dasturlarni to'g'ri tuzish, tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishni vazifa qilib qo'yadi.

Maktabgacha tarbiya ishida uning ko'p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, avvalo ekologiyaga munosabatni shakllantirish lozim. Bolalarda tabiat bilan tanishtirishda, avvalo pedagogika fanining asoschilarini aytib o'tgan fikrlariga asoslanamiz. G'arbning ilg'or pedagoglaridan Kominskiy "Bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va ko'rgazmalilikka asoslanishi kerak" - degan edi.

Bolalarga tabiat orqali beriladigan bilimlar turlicha metod va usullar bilan olib boriladi va ekskursiya, sayr, ta'limiy o'yinlar orqali mustahkamlanib chuqurlashtiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy o'quv dasturlarida ham keng tarzda tashkil etiladigan mashg'ulot soatlari bevosita tabiat bilan bog'langan. Dasturning tabiat bilan tanishtirish bo'limiga materiallar quyidagi prinsiplar asosida tanlanadi:

- Bolalar yoshiga moslik
- Ko'rgazmalilik
- Ilmiylik
- O'lkashunoslik

Bolalar yoshiga mos jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarning barchasi ko'rgazma asosida berilishi shart. Har bir bola o'zi yashab turgan zamin, unda amalga oshayotgan o'zgarishlar, tabiat hodisalari haqida nazariy va amaliyotni uyg'unlashtirgan bilimlar asosida tanishib borishi lozim. Tabiatshunoslikning barcha sohalari (botanika, zoologiya, astronomiya) haqida bilim berish bolalarda yanada tabiatga mehr uyg'otadi. Yuqorida aytib o'tilgan prinsiplar bir-biri bilan bog'liq holda olib boriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik prinsipiga rioya qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalarga tushunarli va oson, ularni tasavvur eta oladigan darajada sodda bo'lishi zarur. Bolalarga berilayotgan

bilim ilmiylik prinsipi asosida bolalar yoshiga mos bo'lsagina samarali natija beradi. Bu haqda Y.A.Komenskiy shunday degan: "Oddiydan - murakkabga, yaqindan-uzoqqa, tanishdan-notanishga tomon borish kerak". Bu esa Komenskiyning fikri bilan bolalarni tabiat bilan tanishtirish bo'limida o'z aksini topgan. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bevosita o'zlariga yaqin bo'lgan, atroflarini o'rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz. Bolalarga avval bog'chadagi daraxtlar gullar, ko'z oldida o'sib unayotgan tabiat haqida, so'ngra o'rmondagi daraxtlar haqida bilim berishimiz mumkin. Demak, biz yaqindan-uzoqqa tomon degan qoidaga rioya qilishimiz, shundan kelib chiqib hissiy tajribani bilish va o'rganish asosida ko'rgazmalilik prinsipiga asosan tashkil etish kerak. Ko'rgazmalilik faqat buyum, hodisalarni ko'rib idrok etish emas, balki ularni hamma sezgi organlarini jalb qilgan holda ko'rish, eshitish, his etish, tatib ko'rish, ushlab ko'rish orqali idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oltin qoidasi hisoblanadi. Agar biror bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun birga bir nechta sezgi organlarini ishga solish lozim. Agar o'rganilayotgan predmetni ko'rish imkoni bo'lmasa ularning sur'atlari yoki modellariga murojaat qilish lozim.

Demak, ko'rgazmalilik grekcha so'z bo'lib, "Barcha narsa va hodisalarni har tomonlama bilib olish, bilimlar yig'indisi" ma'nosida qo'llaniladi. Bolalar osmon jismlarini astronomiyadan, o'zi tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, voha, daryo, tog'larning nomlarini geografiyadan; o'simliklar nomlari ularning o'ziga xos xususiyatlari botanikadan bilib boradilar. Tabiatshunoslik bilimlarini oddiydan - murakkabga tizimli ravishda yaqindan - ya'ni o'z o'lkasi tabiatidan boshlab uzoq ya'ni boshqa o'lka tabiatini tanish. o'rganish asosida bolalarda tabiatga nisbatan e'tibor va qiziqish uyg'onadi. Bu esa ta'limning eng kata yutug'i hisoblanadi. Chunki bolalarga qaysi bir sihani o'rgatishdan oldin unga nisbatan qiziqishni uyg'ota olsak demak maqsad sari birinchi qadam qo'yiladi. O'z o'lkasi tabiati bilan tanishish bevositasi bolani tevarak - atrofdagi, bog'chasidagi yer maydonchasidagi o'simliklar, gullar, ko'chatlar, daryo va ko'l nomlari, tog'lar, yo'lda uchraydigan maysalar nomi, hayvonot olami ya'ni bola kundalik hayoti davomida duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur.

Maktabgacha ta'limning keng ma'noda o'zgarishi kelajak avlodning faqat bir sohada emas balki har bir sohada yetuk, bilimdon shaxslarni tarbiyalash oliy maqsadi bo'lishi lozim. Bolalarda tabiatga mehr uyg'otish orqali Vatan, uning sarhadlarini va unda mavjud bo'lgan tabiatni asrab - avaylash tuyg'ulari shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.Abdalova, D.Yormatova "Ekologiya" o'quv qo'llanma T.: "Iqtisod moliya" 2013-yil
2. A.A.Nazarov "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" o'quv qo'llanma T.: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" 2020-yil

3. S.Buriyev, D.Maxkamova, V.Sherimbetov “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” o’quv qo’llanma T.: “Innovatsiya-Ziyo” 2020-yil

4. D.Sharipova, D.Xodiyeva, M.Shirinov “Tabiatshunoslik va uni o’qitish metodikasi” darslik T.: “Shafolat Nur Fayz” 2020-yil

5. M.I.Nuriddinova “Tabiatshunoslikni o’qitish metodikasi” o’quv qo’llanma T.: “Cho’lpon” 2005-yil

6. D.Sharipova “Tabiatshunoslikni o’qitish metodikasi” darslik T.: “Barkamol fayz media” 2018-yil